

“SANOAT VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: TENDENSIYALAR, BOSHQARUV, STRATEGIYALAR”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami
2022 yil 2-3 mart



"Digital Transformation of Industry and Services: Trends,
Management, Strategies" collection of abstracts
March 2-3, 2022

«Цифровая трансформация промышленности и сферы услуг:
тенденции, управление, стратегии» сборник тезисов
2-3 марта 2022 года.

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

**“SANOAT VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RAQAMLI
TRANSFORMATSIYASI: TENDENSIYALAR, BOSHQARUV,
STRATEGIYALAR”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

2022 yil 2-3 mart

**«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ И СФЕРЫ УСЛУГ:
ТЕНДЕНЦИИ, УПРАВЛЕНИЕ, СТРАТЕГИИ»**

**сборник тезисов
2-3 марта 2022 года**

**“DIGITAL TRANSFORMATION OF INDUSTRY AND SERVICES:
TRENDS, MANAGEMENT, STRATEGIES”**

**collection of abstracts
March 2-3, 2022**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

Шундай қилиб, инновацион рақобатбардошлиқ, бир томондан агар худудларнинг амалда эришилган инновацион ривожланиш даражасини акс эттирса, бошқа томондан, у миңтақадаги бизнес субъектлари тадбиркорлик фаоллигигининг ўлчов мезони сифатида хизмат қиласди. Ўзбекистонда 2022-2026 йилларда миңтақаларда амалга оширилаётган кўпгина новаторлик ва инвестицион сайди-харакатлари туфайли худуддаги устувор соҳа ва тармоқларининг инновацион рақобатбардошлиқ даражаси ошириб бориш имконига эга бўлмоқда.

D.Sh.Yavmutov, BuxDU, i.f.n., dotsent

A.T. Jo’rayev, BuxDU, i.f.n.

O‘ZBEKISTONDA SANOATNI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balkim, kelgusi avlodga ham asrab-avaylagan holda yetkazishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o’sishga to’liq erishish kundan-kunga dolzarblik kasb etib boradi. Bu ishlab chiqarishning pasayib ketishi, aholining iste’mol darajasining kamayishi, inqirozli hududlarning yuzaga kelishi bilan bog’liq holda jamiyatning notejis vaziyatlarni yuzaga keltirishi oqibatida barqaror rivojlanish uchun yangi g’oyalar va tamoyillarni shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asoslarini yaratishni talab qiladi.

Jahon iqtisodiyoti va uning ayrim davlatlari, mintqalari iqtisodiyotining faoliyati samaradorligi hozirgi zamonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolarining yechimi bian uzviy bog’liq. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish pirovardida asosida ekologiya va iqtisodiyotning rivojlanishidagi muammolarining uzviy bog’liqligi namoyon bo’luvchi yangi yo’nalishni, yangi fanni – Yashil iqtisodiyotni yuzaga keltirdi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlanirish zamonaviy dunyoda har bir mamlakat va uning mintqalarining samarali rivojlanishida davlat siyosatining uzviy bir qismi bo’lib, davlat boshqaruvining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib qoldi. Har bir mamlakatda uning mintaqalari o’zlarining hozirgi qaysidir rivojlanish bosqichlarida yashil iqtisodiyotning ma’lum bir yo’nalishiga ustunlik beradi. Mamlakat mintaqalarida yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, raqobatbardoshligini ko’rsatib beruvchi omillardan biriga aylandi.

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinganligi darajasi mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilab berar ekan, albatta har bir mamlakat va uning mintaqasi ishlab chiqarishning ushbu bosqichiga o’tishi talab etiladi. Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaqada va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali o’tishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi.

O’zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlanirish masalalari to’liq tadqiq etilmagan. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanirishda yashil iqtisodiyotning joriy qilishning nazariy-ilmiy asoslarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish mazkur masalaning dolzarb mavzuligini namoyon qiladi.

Sanoat mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. 2019 yil yakunlari bo’yicha sanoat O’zbekistonning YaIMdagi ulushi 30 foizni (joriy narxlarda 139,8 trln. so’m) tashkil etdi. So’nggi yillarda ushbu tarmoqning nafaqat ahamiyati, balkim, ko’lami ham kengayib bormoqda. 2017 yilda sanoat YaIMda 22 foizni tashkil qilgan bo’lsa, 2019 yil yakunida 30 foizga yetdi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining yangi yo’nalishlari ham shakllanib bormoqda.

16 “DIGITAL TRANSFORMATION OF INDUSTRY AND SERVICES: TRENDS, MANAGEMENT, STRATEGIES”

O’zbekiston sanoat rivojlanishi yuqori intensivlikda bo’limgan mamlakatlardan hisoblanishi bilan birga mazkur tarmoqda yashil iqtisodiyot tamoyillari kam shakllangan mamlakatlardan sanaladi.

Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo’nalish bo’lib, asosan 2017 yildan keyin e’tibor qaratila boshlandi. Mazkur yo’nalishda huquqiy-me’yoriy asoslar ham yaqin o’tmishdan shakllanib kelmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni hamda 2017 yil 26 maydagi PQ 3012 sonli “2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida”gi Qarori, 2019 yilning 30 oktyabridagi PF-5863 sonli “2030 yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining Atrof- muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni shular jumlasidan. Mazkur hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o’tish O’zbekiston iqtisodiyotining strategik yo’nalishlaridan ekanligi ta’kidlab o’tilgan.

2030 yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining “Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”da iqtisodiyotni ekologiyalashtirish sohasida quyidagilar mamlakatda yuzaga kelgan ekologik muammolarning yechish yo’llari sifatida belgilangan:

- resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, “yashil infratuzilma”ni yaratish;
- milliy iqtisodiyotni suvdan tejab foydalanish, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo’llashni rag’batlantirishga yo’naltirib o’zgartirish, shuningdek, yuqori energiya samarador standartlar asosida inshootlar barpo etish;
- ekologik jihatlarning davlat sektoral siyosatiga, shu jumladan, rejalar, dasturlar va boshqa strategik hujjatlarni strategik ekologik baholash mexanizmini joriy etish, shuningdek, alohida loyihalarning atrof muhitga ta’sirini baholash orqali integratsiyalashuvini ta’minlash;
- ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potentsial sig’imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish;
- xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini ekologik sug’urtalash va ekologik auditdan o’tkazish tizimini tatbiq etish;
- atrof muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yo’nalishlar bo’yicha xalqaro standartlarga (BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, YeI va boshqalar) o’tishni ta’minlash;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik standartlarni qo’llashni kengaytirish.

Respublikada sanoatning ko’lamini kengaytirish bilan bir qatorda uni yashillashuv, ekologiyalashuv yo’nalishlarida rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud.

Shunday yo’nalishlardan biri bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. 2021 yilning 27 avgust kuni Navoiy viloyatida O’zbekistonda birinchi quyosh elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Uning quvvati 100 mVt. Mazkur korxona yiliga 252 mln. kilovat elektr energiya ishlab chiqaradi. Mazkur inshoot bir yilda 80 mln. kub metr tabiiy gaz iste’molini tejash bilan birga atmosferaga chiqadigan issiqxonalarini 160 ming tonnaga kamayishiga asos bo’ladi.

O’zbekiston quyosh energiyasiga boy mamlakat hisoblanadi, bu yerda 525-760 mlrd. kVt/soatlak potentsial jamlangan. Ushbu potentsialni inobatga olib qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga elektr energiya ishlab chiqarishni 2018 yildagi jamiga nisbatan 10 foizdan 2030 yilga borib 25 foizga yetkazish ko’zda tutilgan.

Energiyani samarasiz ishlatish oqibatida O’zbekiston YaIMi har yili o’rtacha 4,5 foiz yo’qotishga uchramoqda. Mamlakat energiya tashuvchi tizimlarining 40 foizi o’z muddatini o’tab bo’lgan va ma’nan hamda jismonan eskirgan. Hozirgi mavjud energiya tashuvchi resurslar zahirasi 2030 yilga borib keskin kamayadi hamda bu resurslarning katta taqchilligi kuzatiladi. Tadqiqotlar ko’rsatmoqdaki, mamlakat hududida qayta tiklanadigan energiya resurslari manbalari 270 mln. tonna shartli yoqilg’iga teng bo’lib, bu yillik energiya iste’moliga nisbatan 3 karra ko’pdir. Ushbu manbalarning katta qismini quyosh energiyasi tashkil qiladi. So’nggi 10 yil

ichida jahon bozorida quyosh energiyasi narxi 80 foizga pasaygan. O‘zbekistonda bunday energiyaning narxi yanada ham arzonroq bo‘ladi, sababi, mamlakatda quyosh radiatsiyasi yuqori, yorug’ligi balanddir.

Respublika sanoatida kimyoviy ishlab chiqarish va tog’-kon sanoati ustunlik qiladi. Bu tarmoqlar mamlakatda iste’mol qilinadigan energiyaning chorak qismini, shuningdek tabiiy gazning 80 foizga yaqin qismini tasarruf etadi.

Sanoat oldida nafaqat chiqindilarni kamaytirib, atrof-muhitni ifloslanishni pasaytirish masalasi, balki, ekologik sof ishlab chiqarishga, innovatsiyalar va raqobatbardosh kadrlar malakasiga asoslangan global ishlab chiqarish jarayonlaridagi tezkor o’zgarishlarga moslashib borish masalasi ham dolzarbdir.

Sanoat tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirganda ekologik sof mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish, ularni imtiyozli soliq, subsidiyalashgan foiz stavkalari, QQSning pasaytirilishi kabi rag’batlar jarayonlarning tezlashishiga sabab bo‘ladi. Kam ishlab chiqariladigan va import evaziga qoplanadigan tovarlarga past import bojlari qo’llash sanoatning yashil tizimlarga transformatsiyasini va yashil g’oyalarning joriylanishini kuchaytiradi. Shuningdek, ekologik jihatdan zararli bo’lgan subsidiyalarni ajratishni kamaytirish talab etiladi, masalan, energetika sohasida iste’mol qilinadigan yoqilg’i resurslari uchun ajratilayotgan subsidiyalar miqdori shunday resurslarning atrof-muhitni ifloslaganligi uchun ajratilayotgan to’lovlardan bir necha karra kattadir.

Yuqorida sanab o’tilgan masalalar o’zining ilmiy asoslangan yechimlarini kutmoqda.

Foydalanilgan manbalar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863 sonli “2030 yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4574008/>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 maydagji PQ 3012 sonli “2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/3221897/>
3. Зеленое восстановление и переход к зеленой экономике в Узбекистане. <https://www.uz.undp.org/docs./Green-Recovery/>

Ergashev R.X. - QarMII professori, i.f.d.

ELEKTRON TIJORATDA RAQAMLI BANK XIZMATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlaridan foydalanish va yangi innovatsion bank xizmatlar turini joriy etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Bank xizmati, raqamli bank, innovatsiya, texnologik jarayon.

Аннотация. В данной статье приведены рекомендации по использованию цифровых банковских услуг и внедрению нового вида инновационных банковских услуг.

Ключевые слова. Банковское дело, цифровой банкинг, инновации, технологический процесс.

Annotation. This article provides recommendations for the use of digital banking services and the introduction of a new type of innovative banking services.

Keywords. Banking, digital banking, innovation, technological process.

Bank sohasi iqtisodiyotning yangi texnologiyalar keng qo’llanadigan sohasi hisoblanadi. Ular texnik va inson kichik tizimlari bilan amalga oshiriladi.

So‘nggi o’n yilliklar yangi kompyuter texnologiyalari, kredit kartalari va pul-moliya bozorida muhim innovasiyalarni joriy etish davri bo‘ldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, banklar

MUNDARIJA

Buxoro davlat universiteti rektori O.X.Xamidovning tabrik so‘zi	3
1-SHO‘BA: O‘ZBEKISTON VA XORIJY DAVLATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	
Khamidov O. Kh.	Development of the economic system "natural and recreational zones in the sphere of tourism" 6
Khayrullaeva N.N.	Худуд иқтисодиёти рақобатбардошлигини оширишнинг инновацион модели 10
Қаххоров О.С.	O‘zbekistonda sanoatni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish masalalari 15
Навруз-Зода Б.Н.	Elektron tijoratda raqamli bank хизмати 17
D.Sh.Yavmutov	Аккредитация ACCA экономических ВУЗов как инструмент оценивания квалификации их выпускников в рамках цифровой экономики 20
A.T.Jo’rayev	Features of employment in the digital economy 24
Ergashev R.X.	Raqamli iqtisodiyot muammolari va rivojlanish istiqbollari 27
Хожиева И.А.	Пути эффективного использования трудовых ресурсов в цифровой экономике 32
Bazarova M.S.	Sanoat korxonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqaliy boshqaruv samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni taminlash masalalari 35
Farmonova M.N.	Methods of risk assessment in industrial enterprises in the digital economy 41
Шарипова М.М.	Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi ahamiyati va uning muammolari hamda rivojlanish istiqbollari 44
Toxirov A.T.	Хоразм вилояти туризм соҳасини ақамлаштириш имкониятлари 48
Maxmudova N.J.	Ўзбекистон Республикаси саноат иқтисодиётининг технологик ривожланиш даражаси 50
Qiyomov Y. T.	O‘zbekistonda pandemiya sharoitida taqchillikni bartaraf etish imkoniyatlari 54
Илҳамова З.П.	Кооперативное хозяйство: история и проблемы развития 58
А.Д.Анаркулов	Хизматлар соҳасини рақамли иқтисодиёт шароитида ривожлантириш имкониятлари 61
Тўраев Ш.А.	Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida mobil ilovalarni qo’llashning statistik tahlili 66
Ashurova M.X.	Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш қонуниятлари ва хусусиятлари 70
Зайиров З.Х.,	Global lashuvning hunarmandchilik istiqboliga ta’siri 76
Халирова Л.М.	After the pandemic: improving the quality of transport services using the digital economy tools 80
Болтаева М.ИШ.	Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida improving and developing the mechanism for managing the advertising activities of tourism organizations 84
Djabbarov R.	Озиқ-овқат саноатини трансформациялаш орқали унинг рақобатбардошлигини ошириш йўналишлари 86
Хашимов П.З.,	Рақамли иқтисодиёт асосида ишбилармонлик мухитини такомиллаштириш 90
Фахриддина 3.Ф.	Sharifova Sh. Sh. Restoranlarda halol ovqatlanishga bo`lgan aholining ehtiyoji (Buxoro shahrida o’tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili) 97
Ergasheva A. F.	Саноат кластерларнинг рақамли трансформацияси 102
Farmanov E.	
Jalolov Otabek	
Қулиев Н.Х.,	
Бакаева М.А.	
Арипов О.А.	
Sharifova Sh. Sh.	
Хакимов З.А.	
Ахмадова Р.Ж.	